

TA'LIMDA BAHOLASH JAROYONI, AHAMIYATI VA QO'LLANILISH

Davletmuratova Ulbosin Maxsetovna – NDPI 2-bosqich doktoranti

Ta'lim– insonni hayotga tayorlash uchun unga kerakli bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish– jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga katta rol oynaydi. Ta'limning maqsadi, xarakteri, yo'nalishlari obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib boradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Ta'lim tizimini samarasini belgilovchi asosiy qismlaridan biri baholash tizimidir. Baholash-ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayon hisoblanib, olingan bilimlar bo'yicha ma'lumotlarni tizimli yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanishni ifoda etadi. Baho, nafaqat o'quvchilarning har biri nimalarni bilishi, nimalarni tushunishi va nimalarga qodir ekanligi to'g'risida ma'lumot beradi balki samarali ta'lim olish va o'qitishga xizmat qiladi, ularning natijalari jarayonning barcha ishtirokchilari jumladan o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, o'quv rejalarini va o'qitish metodikasini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi. Bundan tashqari baholash birqancha printsiplarga ham ega va bular ta'limni baholashning asosini tashkil qiladi:

- davomiylik printsiipi: Baholash o'quvchi maktabda ekan, uzluksiz jarayondir. Ta'limda baholash o'qitish jarayonining ajralmas qismidir. Talaba nima qilsa, har kuni baholanishi kerak. Shundagina o'quvchi tilni yaxshiroq o'zlashtira oladi.

-komplekslik tamoyili: "Komplekslik" deganda biz o'quvchi shaxsining barcha tomonlarini ko'rib chiqamiz. Bu bolaning barcha sohalarida rivojlanishiga g'amxo'rlik qildi.

-maqsadlar printsiipi: Baholash ta'lim maqsadlariga asoslanishi kerak. Bu o'quvchining xatti-harakatini qayerda o'zgartirish yoki to'xtatish kerakligini aniqlashga yordam berishi kerak.

-ta'lim tajribasi printsiipi: Baholash o'quvchining tajribasi bilan ham bog'liq. Bu jarayonda biz nafaqat o'quvchining maktab ishlariga, balki uning darsdan tashqari faoliyatiga ham qaraymiz. Har ikkala faoliyat turi ham o'quvchilarga ko'proq tajriba orttirishga yordam beradi.

-kenglik printsiipi: Baholash hayotning barcha elementlarini qamrab oladigan darajada keng bo'lishi kerak.

-talabaga yo'naltirilganlik tamoyili: Baholash jarayonining markazida talaba turadi. Talabaning xatti-harakati hukm qilishda e'tibor berish kerak bo'lgan eng muhim narsadir. Bu o'qituvchiga qanday qilib bilishga yordam beradi

-qo'llash printsiipi: O'qitish va o'qitish jarayonida talaba ko'p narsalarni o'rganishi mumkin, ammo ular kundalik hayotda foydali bo'lmasligi mumkin. Agar u foydalana olmasa, uni topish befoyda. Buni baholash orqali ko'rish mumkin.

Baholash asosan 5 bosqichdan iborat bo'lib ular: rejalashtirish, tayyorgarlik, baholash, yaxshilash, hisobot.

Baholashni rejalashtirish: kim? nima? qachon? qanday? nega? Bu tizimli qarorlar qabul qilish va dastlabki qarorlarni qabul qilishning intellektual ijodiy jarayonidir.

Baholashga tayyorgarlik: ishlab chiqish va sinovdan tashqari baholash mezonlari, ko'rsatkichlari, topshiriqlarning soni va hajmi, sarflangan vaqt, baholash tartiblari va vositalari, talabalarni tayyorlash .

Baholash: Bu ta'lim xizmatlari, o'qitish va o'qitish jamiyat ehtiyojlari va iste'molchilarning rivojlanish ehtiyojlariga qanday javob berishini aniqlashning amaliy jarayonidir.

Yaxshilash: Baholovchilar va ishtirokchilar birgalikdagi baholash davomida topilmalarning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek ularning namoyon bo'lish sabablarini va oqibatlarini muhokama qiladilar. Shundan kelib chiqib, yanada takomillashtirish bo'yicha mazmun, yo'nalish va yondashuvni belgilab beruvchi tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Hisobot: baholash to'g'risidagi ma'lumotlarni professional va keng jamoatchilikka tarqatish shakli. iborat Baholash o'quvchilarning muayyan fanni o'rganish davomida va undan keyin egallagan murakkab kompetensiyalarni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashga qaratilgan treningning bir qismidir. Biroq, biz baholashni ko'pincha baholash ma'nosida ishlatamiz va bu o'quvchining o'rgangan har tomonlama kompetentsiya darajasi degan xulosaga kelish odatiy holdir.

Bundan tashqari baholashga nisbatan har xil tushunchalarni uchratishimiz mumkun. Masalan, Kembridj lug'atida baholash "biror narsaning miqdori, qiymati, sifati yoki ahamiyatini hukm qilish yoki hal qilish harakati yoki chiqarilgan hukm yoki qaror" deb ifodalangan bo'lsa, Oxford lug'atida esa bu "talabalarni sinovdan o'tkazish va ularning bilimi, qobiliyati va taraqqiyoti haqida hukm chiqarish jarayoni" deb ko'rsatiladi. Baholash haqida ko'plab olimlar, ilmiy izlanuvchilar va hattoki yosh tadqiqotchilarning ham ilmiy ishlarida baholashning ahamiyati, ta'limdagi asosiy vazifasi haqida keltirib o'tilgan. Masalan, Hindiston tadqiqotchi olimlar Bilal Ahmad Baht va Gh Jeelani Bhat "Baholash - bu kognitiv, affektiv va psixomotor ta'limning uchta sohasini o'lchashga qaratilgan ta'lim dasturi. Yakuniy xulosaga kelish uchun jarayon ham, mahsulot ham baholanadi. Baholash natijalari har doim xulq-atvordagi o'zgarishlar bo'yicha baholanayotgan shaxs nuqtai nazaridan ifodalanadi" [1,776-777] deb ta'kidlab o'tadi. Baholash nafaqat ta'limda o'quvchining bilimini baholaydi, balki hayotda biror bir narsaga hukm chiqarish va baho berishda qo'llaniladi. Bu haqida Maddalena Taras "Baholash - bu hukm, bu qarorni qabul qilish uchun parametrlar, standartlar, mezonlar, kontekst talab qilinadi. Parametrlar baholovchining boshida yashirin bo'lishi mumkin yoki ular aniq bo'lishi va boshqalar bilan bo'lishishi mumkin. Masalan: "Bu stul qulay, chunki" bu misolda ba'zi parametrlarni tinglovchi bilan baham ko'radigan hukmni uchratamiz. Ta'limda esa baholash, mulohazali jarayon, mahsulot yoki o'zaro ta'sirga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun, hamma narsani baholash mumkin va bu hamma joyda mavjud bo'lgan jarayon ko'pincha odatiy hol sifatida qabul qilinadi va kamdan-kam hollarda tahlil qilinadi yoki parchalanadi" [2;3020].

Baholash mezonlariga ijtimoiy, iqtisodiy va zamon talablariga qarab o'zgartirishlar kiritish kerak deb hisoblaydi olimlar. Atab aytadigan bo'lsak, Avstraliya olimlari Patrick Griffi va Esther Care "An'anaviy baholash shakllari yigirma birinchi asrning ko'plab ko'nikmalarini, ayniqsa kognitiv bo'lmagan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan ko'nikmalarni tekshirish uchun mos kelmasligi mumkinligi" [3;7] ta'kidlaydi. Biz ham bu fikr tarafdorimiz, chunki bugungi kunda biz o'rganuvchilarimizning nafaqat bilim darajasini orttiramiz, balki ularning muloqatga tushish, boshqalar bilan ishlash, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoani boshqarish, muammolarni echish, texnologiyadan foydalanish va haqoza kabi ko'nikma va maqoratini ham rivojlantiramiz, va albatta baholaymiz ham.

Baholash o'quv jarayoning asosiy jarayoni bolib, bu nafaqat o'quvchilarning yutuqlarini baholashda cheklanmasdan o'quvchilarning kamshiliklarini aniqlab ularni bartarab etishda muhim ro'l o'ynaydi. Bu haqida Qozoqstonlik olimlarning ham fikrlaridan ko'rsak bo'ladi. Masalan, R.K Iskakova, S.K Azhigenova, Zh Zengin baholash haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Baholash tushunchasi - ta'lim natijalarini aniqlashda qo'llaniladigan yondashuv, o'quvchiga fanni o'rganishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan omil. Baholash ko'pincha narxlarni sintez qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab asosidagi baholash faqat narx belgilash bilan cheklanmaydi, bu o'rganishning muhim qismi bo'lib, o'rganish va o'rganmaslik sabablarini aniqlash imkonini beradi. Baholash - bu keyingi o'rganish maqsadlarida tizimli ravishda umumlashtirilgan faoliyatni tavsiflash uchun ishlatiladigan atama" [4;155]. Yosh tadqiqotchi Hamza Elliyev o'zining ilmiy maqolasida, "Baholash o'qituvchi-o'quvchilar tizimida hisobot paytida o'qituvchiga keladigan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasidir. Baholash katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega" [5;256] degan izohini keltirib o'tadi. Bundan ko'rinib turibdiki, agar ta'lim oluvchining bahosi past natijani ko'rsatsa, ta'lim beruvchi unga yana bilimlarni o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu orqali o'quvchi o'z ustida ishlash orqali yuqori natijani qayd etadi va bilimni yanada yaxshiroq egallashga erishadi.

Xulosa o'rnida takidlab o'tish joizki, yuqorida keltirib o'tilgan ixtirochilarning baholash haqida fikrlarni tahlil qilib, biz baholashning bir qancha xususiyatlarini aniqladiq. Baholash-o'quvchi va o'qituvchini chambarchas bog'lab turadigan tizim hisoblanib, o'qituvchi va o'quvchining zaif va kuchli tomonlarini aniqlaydi va shunga asosan samarali ta'lim berishning yanada kengroq usullarini izlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bhat, Bilal & Bhat, Dr. (2019). Formative and Summative Evaluation Techniques for Improvement of Learning Process 776-777-bet.
2. Maddalena Taras “ Assessment for learning : assessing the theory and evidence” <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2010.03.457> University of Sunderland, a department of education, Chester Road, Sunderland SRI 3SD, UK p3020.
3. Patrick Griffi and Esther Care “Assessment and Teaching of 21st Century Skills”, 2015 Springer 7-bet.
4. K Iskakova, S.K Azhigenova, Zh Zengin “A modern assessment of students in schools in the education system of Kazakhstan” Seriya “Pedagogika” N_2(90)/2018 155-bet.
5. Hamza Elliyeu “ O'quvchilar bilimini baholash ilmiy pedagogik muammo sifatida” 256b. O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/10/1] ISSN 2181-7324